

BOLA SHAXSINI RIVOJLANISH OMILLARI

*O'ralova Mashhura Sharofiddin qizi**Guliston davlat pedagogika instituti**Maktabgacha ta'lim kafedrası talabasi***Annotatsiya**

Ushbu maqolada bolaning rivojlanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillar — irsiyat, muhit va ta'lim-tarbiyaning o'zaro bog'liqligi tahlil qilinadi. Shaxs shakllanishida tug'ma biologik imkoniyatlarning o'rni, ularning muhit ta'sirida namoyon bo'lishi hamda tarbiya jarayonida rivojlantirilishi yoritib beriladi. Shuningdek, oila, maktab va ijtimoiy muhitning bola kamolotidagi ahamiyati ilmiy-pedagogik nuqtai nazardan asoslanadi. Maqolada barkamol avlodni tarbiyalashda sog'lom nasl, ma'naviy muhit va izchil ta'limning uyg'unligi zarurligi haqida xulosa chiqariladi.

Kalit so'zlar: Bola rivojlanishi, irsiyat, muhit, ta'lim-tarbiya, shaxs shakllanishi, oila muhiti, ijtimoiy muhit, iste'dod, layoqat, ma'naviy kamolot.

Annotation

This article analyzes the main factors influencing a child's development, namely heredity, environment, and education. It explains the role of innate biological characteristics in personality formation and describes how these abilities develop through environmental influence and systematic upbringing. The importance of family, school, and social environment in shaping a well-rounded individual is discussed from a pedagogical perspective. The article concludes that the harmonious interaction of healthy heredity, a positive social environment, and consistent education is essential for raising a mature generation.

Keywords: Child development, heredity, environment, education, personality formation, family environment, social environment, ability, talent, moral development.

Аннотация

В данной статье рассматриваются основные факторы развития ребёнка — наследственность, среда и воспитание. Анализируется роль врождённых биологических особенностей в формировании личности, а также их развитие под влиянием окружающей среды и целенаправленного воспитания. Особое внимание уделяется значению семьи, школы и социальной среды в процессе становления гармонично развитой личности. Делается вывод о необходимости единства здоровой наследственности, благоприятной среды и систематического образования для воспитания зрелого поколения.

Ключевые слова: Развитие ребёнка, наследственность, среда, воспитание, формирование личности, семейная среда, социальная среда, способности, талант, нравственное развитие.

Insonning jamiyatda tutgan oʻrni va uning kamoloti murakkab psixologik hamda ijtimoiy jarayon hisoblanadi. Shaxs tushunchasi bevosita insonga taalluqli boʻlib, u psixik jihatdan taraqqiy etgan, oʻziga xos xulq-atvor va mustaqil dunyoqarashga ega boʻlgan jamiyat aʼzosini ifodalaydi. Odamning chinakam shaxsga aylanishi uchun u oʻzini yaxlit inson sifatida his etishi, oʻz xususiyatlari va fazilatlarini bilan boshqalardan farqlanib turishi lozim. Rivojlanishning ilk bosqichlarida bola "individ" sifatida talqin etiladi. Lotincha "individuum" soʻzidan olingan ushbu tushuncha boʻlinmas, yagona va alohida mavjudot maʼnolarini anglatib, asosan xatti-harakatlarini shartli reflekslar yordamida tashkil etuvchi biologik birlikka nisbatan qoʻllaniladi. Shaxsning betakrorligini ifodalovchi individuallik esa tarbiya jarayonida bolaning yashash sharoitlarini chuqur oʻrganishni va uning oʻziga xosligini hisobga olishni taqozo etadi. Bunday individual yondashuv bolalarning aqliy salohiyati, bilimga boʻlgan ishtiyoqi va yashirin isteʼdodlarini yuzaga chiqarishda poydevor boʻlib xizmat qiladi. Insonning ijtimoiy mavjudot darajasiga koʻtarilishi bevosita tashqi muhit va tizimli tarbiya taʼsirida kechadi. Bola harakatlarining ongli tus olishi ijtimoiy munosabatlardagi ishtirok natijasida shakllanadi. Shu oʻrinda rivojlanish fenomenining mohiyatini anglash muhimdir. Rivojlanish — bu nafaqat miqdoriy oʻsish, balki insonning jismoniy, ruhiy va ijtimoiy qiyofasida yuz beradigan sifat oʻzgarishlari jarayonidir. Aynan mana shu omillar majmuasi odamning shaxs sifatida shakllanishini taʼminlaydi.

Rivojlanishning Dialektik Mohiyati va Qonuniyatlari.

Rivojlanish jarayoni oʻz mohiyatiga koʻra shunchaki chiziqli oʻsish emas, balki inson fiziologiyasi va intellektida yuz beradigan miqdor hamda sifat oʻzgarishlarining murakkab sintezidir. Bu jarayon dialektika qonuniyatlariga boʻysunib, oddiydan murakkabga, quyi bosqichdan yuqori choʻqqiga intilish, eskining inqirozi va yangi sifatlarning paydo boʻlishi bilan xarakterlanadi. Rivojlanishning harakatlantiruvchi kuchi — bu ichki va tashqi ziddiyatlar oʻrtasidagi kurashdir. Yaʼni, insonning mavjud imkoniyatlari bilan uning oldiga qoʻyilgan yangi ijtimoiy talablar oʻrtasidagi nomuvofiqlik shaxsni olgʻa intilishga majbur qiladi.

Biologik va Ijtimoiy Omilarning Uzviyligi

Shaxs rivojlanishi insonning ham biologik, ham ijtimoiy mavjudot ekanligi haqidagi falsafiy taʼlimotga tayanadi. Inson tabiatning bir qismi sifatida genetik qonuniyatlarga boʻysunadi, biroq uning shaxsiy qiyofasi faqat ijtimoiy muhitda shakllanadi. Ushbu ikki omilni bir-biridan ajratib boʻlmaydi:

- Biologik asos: Organizmning oʻsishi, nerv tizimining xususiyatlari va irsiy moyilliklar rivojlanish uchun zamin (potensial) yaratadi.
- Ijtimoiy muhit: Insonning hayot tarzi, muloqoti va egallagan bilimlari ushbu potensialni voqelikka aylantiradi.

Shuni ta'kidlash lozimki, inson kamolotiga faqat ijobiy omillar emas, balki hayotiy tajribalar, turli kasalliklar yoki fojiali vaziyatlar ham o'z ta'sirini o'tkazadi. Bu omillar shaxsning irodasini toblaydi yoki uning dunyoqarashini o'zgartirib, hayotiy tajribasini boyitadi.

Tarbiya va Rivojlanishning O'zaro Aloqadorligi

Inson butun umri davomida o'zgarishda davom etadi. Bu jarayonda tarbiya yetakchi va yo'naltiruvchi rol o'ynaydi. Agar tarbiya jarayoni bolaning yosh xususiyatlariga va individual imkoniyatlariga muvofiq tashkil etilsa, u ijtimoiy munosabatlar tizimida o'zining munosib o'rnini topadi. Rivojlanish va tarbiya o'rtasida ikki tomonlama kuchli aloqa mavjud:

1. Tarbiya rivojlanishga tayanadi: Tarbiyachi bolaning jismoniy va ruhiy rivojlanish darajasini bilishi, uning imkoniyatlaridan kelib chiqib vazifa yuklashi shart.

2. Rivojlanish tarbiya natijasida tezlashadi: Tizimli va maqsadli tarbiya boladagi yashirin qobiliyatlarni uyg'otadi va uni ijtimoiy kamolot sari yetaklaydi.

Shaxs kamolotida irsiy omillar muhim o'rin tutadi. Inson dunyoga kelar ekan, u ota-onasidan ma'lum biologik va fiziologik xususiyatlarni meros qilib oladi. Tananing tuzilishi, bo'y-bast, teri, soch va ko'z rangi kabi tashqi belgilar bilan bir qatorda, asab tizimining turi, uning barqarorligi, ta'sirchanlik darajasi, modda almashinuvi xususiyatlari ham nasliy yo'l bilan o'tadi. Aynan shu omillar bolaning tashqi muhit ta'siriga qanday munosabat bildirishini belgilab beradi. Ba'zi bolalarda tezkorlik, jo'shqinlik yoki sezgirlik yuqori bo'lsa, boshqalarida vazminlik va barqarorlik ustun bo'lishi mumkin. Shuningdek, insonda tug'ma reflekslar hamda muayyan faoliyat turlariga moyillikni belgilovchi anatomik-fiziologik asoslar mavjud bo'ladi. Masalan, ayrim kishilarda musiqani nozik farqlash qobiliyati, kuchli eshitish xotirasi yoki mantiqiy fikrlashga moyillik erta namoyon bo'ladi. Biroq irsiy imkoniyatlar o'z-o'zicha yetuk natijaga olib kelmaydi. Ular faqatgina salohiyat sifatida mavjud bo'lib, tegishli sharoit va tarbiya bo'lmasa, rivojlanmay qolishi mumkin. Shu ma'noda irsiyatni urug'ga qiyoslash mumkin: unumdor tuproq va parvarish bo'lmasa, urug' unib chiqmaydi. Bola shaxsining shakllanishida muhit omili ham kam ahamiyat kasb etmaydi. Muhit — bu insonni o'rab turgan tabiiy, oilaviy va ijtimoiy sharoitlar majmuasidir. Tabiiy-geografik sharoit insonning turmush tarzi, dunyoqarashi va hatto fe'l-atvoriga ta'sir ko'rsatadi. Turli hududlarda yashovchi insonlarning hayotga munosabati, urf-odatlar va ruhiyati o'ziga xos bo'lishi bejiz emas. Iqlim, yashash sharoiti va mehnat turi ham shaxs xususiyatlariga ma'lum darajada ta'sir etadi. Oila muhiti esa bolaning ilk ijtimoiy maktabi hisoblanadi. Bola hayotining dastlabki yillarida eng ko'p vaqtini oila davrasida o'tkazadi. Shu sababli ota-onaning dunyoqarashi, ma'naviy saviyasi, axloqiy mezonlari bevosita farzand ongiga singadi. Mehr-oqibat, hurmat, mas'uliyat va mehnatsevarlik kabi fazilatlar avvalo oilada shakllanadi. Agar oilada sog'lom ma'naviy muhit hukm sursa, bola o'zini xavfsiz va

qadrlangan his qiladi, bu esa uning ruhiy barqarorligi va ijtimoiy moslashuviga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ijtimoiy muhit ham shaxs kamolotining muhim omillaridan biridir. Inson jamiyatda yashar ekan, u turli ijtimoiy munosabatlar jarayonida tajriba orttiradi, bilim va ko'nikmalarni egallaydi. Ta'lim tizimi, madaniy muassasalar, ommaviy axborot vositalari va mehnat jamoalari shaxsning dunyoqarashi va qadriyatlarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Jamiyatda hukm surayotgan ma'naviy-axloqiy muhit qanchalik sog'lom bo'lsa, yosh avlodning kamoloti ham shunchalik barkamol bo'ladi.

Jamiyatda adolat ustuvor bo'lsa, bu holat inson faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Adolatli muhitda yashayotgan shaxs o'z imkoniyatlarini erkin namoyon etadi, intilishlari qo'llab-quvvatlanadi va mehnatiga munosib baho oladi. Aksincha, adolatsizlik hukm surgan sharoitda insonning ichki salohiyati so'nishi, ishonchi pasayishi va tashabbuskorligi cheklanishi mumkin. Demak, ijtimoiy muhitning ma'naviy qiyofasi shaxs kamolotida bevosita ahamiyatga ega. Ko'pincha savol tug'iladi: nega bugungi davrda o'tmishda yashab ijod qilgan buyuk allomalar darajasidagi zotlarni kam uchratamiz? Masalan, Imom Buxoriy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy yoki Imom G'azzoliy kabi siymolar nafaqat o'z davrining, balki butun insoniyat tafakkurining yuksak namoyandalari bo'lgan. Bunday shaxslarning yetishib chiqishida birgina irsiyat emas, balki kuchli ilmiy muhit, yuksak ma'naviy qadriyatlar va puxta tarbiya hal qiluvchi rol o'ynagan. Ular yashagan davrda ilm-fan va ma'rifatga e'tibor yuqori bo'lgan, ustoz-shogird an'analari mustahkam yo'lga qo'yilgan, ota-onalar farzand tarbiyasiga mas'uliyat bilan yondashgan. Shaxs — muayyan ijtimoiy jamiyat mahsulidir. Jamiyat undagi insonlarning imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi ham, aksincha, ularni cheklab qo'yishi ham mumkin. Bu esa jamiyatdagi munosabatlarning mazmuni, qadriyatlar tizimi va ma'naviy darajasiga bog'liq. Agar ijtimoiy tizim bilimli, halol va tashabbuskor insonlarni qo'llab-quvvatlasa, natijada yuksak salohiyatli avlod voyaga yetadi. Mikromuhit — ya'ni oila, maktab, do'stlar davrasi va yaqin ijtimoiy aloqalar — shaxs shakllanishida alohida o'rin tutadi. Bola aynan shu muhitda o'zining ilk qarashlari, odatlari va xulqiy me'yorlarini shakllantiradi. Atrof-muhitda mavjud bo'lgan ijobiy omillar boladagi tug'ma layoqatni erta namoyon qiladi va rivojlantiradi. Aks holda, zarur shart-sharoit bo'lmasa, mavjud iste'dod yuzaga chiqmay, "yashirin" holatda qolib ketishi mumkin. Shuni unutmaslik kerakki, axloqiy fazilatlar, dunyoqarash va ruhiy sifatlar faqat nasl bilan belgilanmaydi — ular muhit va tarbiyaning o'zaro uyg'un ta'siri natijasida shakllanadi. Pedagogika va psixologiya fanlari ham shaxs rivojida ijtimoiy omillarning rolini alohida ta'kidlaydi. Ijtimoiy muhit doimiy va o'zgarmas emas; u tarixiy jarayonlar, taraqqiyot bosqichlari ta'sirida yangilanib boradi. Shu bois har bir davr o'zining shaxs tarbiyasiga ta'sir etuvchi shart-sharoitlarini yaratadi. Nasldan-naslga o'tadigan belgilar qatoriga anatomik-fiziologik tuzilish, asab tizimi xususiyatlari,

tashqi ko‘rinish belgilarigina emas, balki ayrim umumiy qobiliyat alomatlari ham kiradi. Biroq iste’dod aniq bir faoliyat turiga tayyor ko‘rinishda o‘tmaydi. U faqat moyillik sifatida namoyon bo‘ladi. Muayyan oilada ajdodlarga xos iste’dod belgilari kuzatilsa, uning rivojlanishi uchun o‘sha yo‘nalishda sharoit yaratish, rag‘bat va to‘g‘ri yo‘naltirish zarur. Aks holda, tabiiy imkoniyatlar to‘liq namoyon bo‘lmasligi mumkin.

Bolaning rivojlanishi murakkab va ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, u birgina omil ta’siri bilan emas, balki irsiyat, muhit va ta’lim-tarbiyaning o‘zaro uyg‘unlashuvi natijasida yuzaga chiqadi. Inson dunyoga ma’lum biologik imkoniyatlar bilan keladi. Bu imkoniyatlar uning jismoniy tuzilishi, asab tizimi xususiyatlari, sezgirligi va muayyan faoliyatga moyilligi kabi belgilar orqali namoyon bo‘ladi. Biroq tug‘ma layoqatning o‘zi yetarli emas. U rivojlanishi uchun qulay sharoit, rag‘bat va muntazam mashq zarur. Aks holda, mavjud salohiyat ochilmay qolishi mumkin. Shu bilan birga, bola kamolotida muhit hal qiluvchi o‘rin tutadi. Oila — shaxs shakllanishining dastlabki va eng muhim maktabidir. Mehr-oqibat, hurmat, mas’uliyat, mehnatsevarlik kabi fazilatlar avvalo oilada qaror topadi. Maktab va kengroq ijtimoiy muhit esa bolaning dunyoqarashi, tafakkuri va ijtimoiy faolligini shakllantiradi. Jamiyatda adolat, qonun ustuvorligi va ilmga hurmat kuchli bo‘lsa, yosh avlodning intilishlari qo‘llab-quvvatlanadi. Aksincha, befarqlik va loqaydlik hukm surgan muhit shaxsning ichki imkoniyatlarini cheklashi mumkin. Ta’lim va tarbiya esa irsiy imkoniyatlar bilan muhit ta’sirini maqsadli yo‘naltiruvchi omildir. Ongli, tizimli va izchil tarbiya boladagi ijobiy sifatlarni mustahkamlaydi, salbiy holatlarning oldini oladi. Ustoz va ota-onaning mas’uliyati aynan shu jarayonda namoyon bo‘ladi. Chunki bola ko‘proq ko‘rganini takrorlaydi, eshitganidan ko‘ra kuzatganidan tezroq ta’sirlanadi. Demak, tarbiya nafaqat nasihat, balki shaxsiy namuna orqali amalga oshiriladi. Shunday ekan, komil insonni voyaga yetkazish uchun uch asosiy omil — sog‘lom irsiyat, ma’naviy pok muhit va puxta tarbiya bir-birini to‘ldirib borishi lozim. Ularning birortasi e’tibordan chetda qolsa, rivojlanish jarayoni to‘liq va mukammal bo‘lmaydi. Barkamol avlodni tarbiyalash esa nafaqat oila yoki maktabning, balki butun jamiyatning vazifasidir. Menimcha, bugungi kunda farzand tarbiyasida eng muhim jihat — bu e’tibor va mas’uliyatdir. Har bir ota-ona va pedagog bolaning ichki dunyosini tushunishga harakat qilsa, uning qiziqish va qobiliyatlarini o‘z vaqtida qo‘llab-quvvatlasa, natija albatta ijobiy bo‘ladi. Shuningdek, zamonaviy sharoitda axborot oqimi kuchaygan bir paytda bolalarni to‘g‘ri yo‘naltirish, ularda mustaqil fikrlash va sog‘lom dunyoqarashni shakllantirish yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Agar biz irsiyat bergan imkoniyatlarni to‘g‘ri tarbiya va sog‘lom muhit bilan boyitsak, kelajakda jamiyatimiz uchun foydali, bilimli va ma’naviy yetuk shaxslar voyaga yetishiga ishonaman.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. N.M.Kayumova Maktabgacha ta'lim-tarbiya pedagogikasi. O'quv qollanma – Toshkent : “METODIST NASHRIYOTI” , 2024.-306 bet
2. Shoista Sodiqova Maktabgacha pedagogika . Darslik./-Toshkent : “METODIST NASHRIYOTI” , 2023.-316 b.
3. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - T.: "O'zbekiston", 2017.
4. Mirziyoev Sh.M. Tangidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik goidasi bo'lishi kerak. -T: "O'zbekiston", 2017. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo ladi. -T.: O'zbekiston, 2019.
5. Mirziyoev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. - T: "O'zbekiston", 2020 yil 29 dekabr.